



## ESKI TURKIY ADABIY TIL DAVRI VA UNDA YARATILGAN ASARLAR VA LUG‘ATLARNING TILIMIZDAGI O‘RNI

---

*Jummayeva Nurshoda*

*Abdurayemova Nozima*

*Termiz davlat universiteti talabalari*

*Ilmiy rahbar: I.Shamsudinova*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada eski turkiy adabiy til davri va o‘sha davrdagi Qoraxoniylar hukmronligi ostida bo‘lgan xalq o‘z tilini unutmagan, islom dini rasman tan olingani, Qoraxoniylar sulolasi ham Chig‘atoy, jo‘ji, xulagu, o‘ktoy yoki o‘g‘day uluslarida ham turkiy til an‘anasi saqlanib qolganligi va h.k lar bilan tanishib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:** eski turkiy til davri, Navoiy davri, Qutadg‘u bilig, Devoni lug‘atit turk, Devoni hikmat, Hibbat ul- haqqoyiq, O‘g‘uznoma.

Xalq tili bilan adabiy til qadimgi davrlardanoq farqlangan. Biz hozirda «eski turkiy adabiy til» deb atayotgan til yozma manbalarda xalq tilidan farqli o‘laroq bir qancha nom bilan yuritilgan. Ma’lumki, XI asrda turkiy tillarning g‘arbiy dialektlari sharqiy dialektlardan o‘zaro fonetik, leksik, morfologik, uslubiy jihatdan farq qilar edi. Turkiy tillarda Mahmud Qoshg‘ariy dialektlar orasida o‘ziga xosliklarni ko‘rdi va ularni tasnif qildi.

Tasnifga ko‘ra u g‘arbiy dialektlarni «o‘g‘uz tili», sharqiy dialektlarni esa «turk tili» nomi ostida umumlashtirib chiqdi. Turk tili qadimgi turkiy adabiy tilning davomi bo‘lib, u qoraxoniylar o‘lkasidagi asosiy shevalarni asos qilgan adabiy til edi. Mahmud Koshg‘ariy qoraxoniylar markaziy o‘lkasida yashaydigan xalqning tilini umumiy adabiy tilning asosi deb hisoblagan. Shuning uchun u adabiy tilni markaziy o‘lkalarga nisbat berib, ba‘zan «xoqoniya tili» deb ham aytadi., «Devonu lug‘atit turk»da boshqa turkiy dialektlarga nisbatan aytilgan «turk tili», «xoqoniya tili» atamaları bu adabiy tildir. Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqqoyiq» asarida «Koshg‘ar tili» degan atama qo‘llanilgan. «kashg‘ariy til» - bu adabiy tildir.

XI asrda yashab otgan mashhur olim, turkshunoslikning asoschisi Mahmud Koshgariyning «Devonu lug‘atit turk» (“Turkiy so‘zlar devoni”) asari saqlanib qolgan. Lug‘at tuzishda Mahmud Koshg‘ariy arab lug‘atchiligidagi yo‘lni tanladi. Devonda avval ismlar, keyin fe’llar keladi. Ismlarda ham, fe’llarda ham oldin so‘z boshida hamzali so‘zlar, keyin boshqa harflar bilan boshlangan so‘zlar



izohlanadi. Devonda muallif turkiy soʻzlarning maʼnosini ochib berish uchun juda koʻp xalq maqollari, ibora, qoʻshiqlardan keltiradi. M.Koshgʻariy «Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli soʻzlar, sajʼlar (qofiyali nasr), maqollar, qoʻshiqlar, rajaz (botirlar qahramonligini tasvirlovchi parchalar) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim» ---deydi. Devon turkiy tilda yaratilgan dastlabki ilmiy asar hisoblanadi, shuning uchun ham M.Koshgʻariyni turkshunos olim deyishimiz mumkin. Ushbu devonda 7 mingdan ziyod soʻz va iboralar keltirilgan, soʻz va birikmalarning maʼnolarini izohlash maqsadida adabiy parchalardan ham keltiriladi. Mazkur adabiy parchalar qadimgi turkiy xalqlarning badiiy ijodi namunalari. Devonda 242 ta adabiy parcha keltirilgan. Ushbu parchalar oʻsha kezlarda el orasida mashhur boʻlgan dostonlar, marsiyalar, mehnat va muhabbat, tabiat tasviri, yurt manzaralari, qahramonlik, ovchilik toʻgʻrisidagi xalq qoʻshiqlaridan olingan. Devonda soʻz va iboralar maʼnosini izoqlash uchun keltirilgan maqollar soni ikki yuzdan oshadi. Shuningdek, juda koʻp sohaga doir maʼlumotlar keltiriladi. Jumladan, asarda oʻsimliklar dunyosi, chorvachilik, hayvonot olamiga oid soʻzlar hamda ovqatlarni tayyorlash yoʻllari, may achitish usullari, cholgʻu asboblari, kiyim-kechaklar, turli marosimlar bilan bogʻliq rasm-rusumlar haqidagi maʼlumotlar mavjud.

«Qutadgʻu bilig» («Baxtga yetkazuvchi bilim») XI asr turkiy badiiy yozma adabiyotining eng qimmatli yodgorligidir. «Qutadgʻu bilig» oʻn uch ming misradan ziyod, masnaviyda bitilgan doston. Asardan yana maʼlum boʻlishicha, muallif uni yozib tugallagach, qoraxoniylar hukmdorlardan boʻlgan Tavgʻach Bugʻraxoniga tortiq qiladi. Xon Yusufni taqdirlab, unga xos hojiblik unvonini beradi. Qoraxoniylar zamonida saroydagi yuqori lavozimlardan biri ana shu unvon (nom) bilan yuritilardi.

Asar oʻz davrida juda katta shuhrat topdi. U Sharqda turkiy shohnoma darajasiga koʻtarildi. Muqaddimada hayd etilishicha, Turkiston ellarida, turk tilida hech kim oʻsha davrda bu kitobdan yaxshiroq kitob yoza olmagan. Chinliklar «Adabu-l-muluk», mochinliklar «Ayinu-l-mamlakat», mashriqliklar «Ziynatu-l-umaro», eronliklar «Shohnomayi turkiy», baʼzilar «Pandnomayi muluk» dedilar. Turonliklar uni «Qutadgu bilig» deb atadilar.

«Qutadgʻu bilig»ning bizga qadar 3 qoʻlyozmasi saqlanib qolgan. Taʼkidlash lozimki, muallif bu asarini turkiy adabiyotning oʻz anʼanalari asosida yaratdi. Shuning uchun u turk elidagina emas, badki butun Sharqda shuhrat qozondi. Turkiy adabiyotning ilgʻor tomonlarini oʻzida mujassamlashtirgani, oʻziga xos originalligi tufayli ham bu asar «Shohnoma»dek buyuk darajaga koʻtarildi. Turli ellarda uning har xil nom bilan atalishi bejiz emas.



Ahmad Yassaviy qalamiga mansub «Devoni hikmat» eski turkiy adabiyot va adabiy tilining obidalaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Undagi she'rlarning ko'pchiligi xalq og'zaki ijodida keng yoyilgan qo'shih shaklidagi to'rtliklardan tashkil topgan. To'rtlik — qo'shiq shaklida yaratilgan shs'rlar xalq so'zlashuv tiliga yaqin bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, bu she'rlar, asosan, qadimdan mavjud bo'lgan barmoq va aruz vaznida yaratilgan. Shunga ko'ra Yassaviy she'rlarida umumxalq tiliga xos so'z va shakllar, badiiy tasvir vositalari keng ishlatilgan. Ahmad Yassaviyning adabiy til tarixi dagi eng katta xizmati adabiy tilni jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirish bo'lgan edi. «Devoni hikmat»ni hozirgi har bir o'zbek yoki turkiy xalqlar vakili o'qib bemalol tushuna olishining o'zi fikrimizning dalilidir. Ahmad Yassaviy davridagi eski turkiy adabiy tilining nsgizini Toshkent, Samarqand—Buxoro, Sayram—Qorabuloq—Turkiston tip shevalaridan izlash mumkin. Ahmad Yassaviy «Devon»ining leksik xususiyatlari bo'yicha kuzatuvlar ko'rsatadiki, unda, asosan, eski turkiy leksik qatlamga oid so'zlar bilan birga, arab va tojik-fors tillaridan o'zlashgan so'zlar ham bor. Xususan, arabcha so'z va shakllar o'zlashgan qatlamning katta qismini ishg'ol etadi.

Hibatu-l-haqoyiq: Eski turkiy tilining muhim yodgorliklaridan biri XII—XIII asrda yashab ijod etgan adib Ahmad Yugnakiy asaridir. «Hibatu-l-hahoyiq»ning bizgacha olti qo'lyozma nusxasi yetib kelgan. Shulardan uchta to'la hajmli nusxalar, qolganlari asardan olingan parchalardir. Asarning bunusxasi 246 baytdan iborat. U hozir Istanbulda saqlanmoqda.

«O'g'uznoma» turkiy xalqlar orasida qadim zamonlardan keng tarqalgan, uzoq tarixiy jarayonni o'zida aks ettirgan qahramonlik dostonidir, doston xalq ogzaki ijodining xarakterli xususiyatlarini o'ziga singdirib, badiiy jihatdan mustahkamlanib, og'izdan-og'izga ko'chib kelgan. «O'g'uznoma» — badiiy jihatdan pishiq asar. U qadimgi turklarning afsona, rivoyatlarini o'zida umumlashtirgan. Dostonda aks etgan voqealarni turkiy xalqlarning juda qadimgi hayoti bilan bog'lashga asosimiz bor. Unda aks etgan voqealar o'z ildizi bilan uzoq davrlarga borib taqaladi. Shu jihatlari bilan bu asarning qadimgi turkiy adabiyotimizni o'rganishdash ahamiyatga ega. Asar, o'z navbatida, eski turkiy tilning muhim yodgorligi hamdir. Uning tilida qadimgi turkiy tilga xos xususiyatlar (jumladan, adaq. «oyoq», adug' «ayiq», sug'i «suvi», qag'ar «qor» kabi) bilan bir qatorda eski turkiy tilga xos xususiyatlar (jumladan, mo'g'ulcha so'zlarning qo'llanilishi kabi) aralash kuzatiladi. Asar tili sodda, xalq tiliga yaqin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqorida keltirgan ushbu asarlar va lug'atlar eski turkiy adabiy til ravnaqida muhim ro'l o'ynaydigan asarlardir. Mazkur asarlarda



qadimda turkiy tilda turkiy xalqlarning tili va ularning soʻzlashuv nutqi hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanilgan soʻzlarning qadimgi eski turkiy tilda aytilishi va undagi nomlanishlarini yozgan. Biz bu asrlarning lugʻat qismlari bilan tanishib chiqib hozirgacha baʼzi turkiy soʻzlarning saqlanib qolganligini koʻrishimiz Eski turkiy adabiy tilning bizgacha manbalar orqali yetib kelishida M.Koshgʻariy, Yusuf xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy kabi olimu allomalarning xizmati kattadir. Biz yoshlar bu asarlar va lugʻatlar bilan tanishib uni chuqurroq oʻrganib oʻz tilimizning qanchalik boy va rang-barangligini butun jahonga tanilitirishimiz va oʻz tilimiz bilan faxr tuygʻusini his etamiz va bu jarayonda nafaqat biz yoshlar balki ustozlarimizning izlanishlari hamda bizga berayotgan yordam va koʻmaklari kattadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000-2005-y.
2. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. OʻzSSR Fanlar akademiyasi nashriyotining bosmaxonasi. Toshkent, 1960-y